



ISLOMIY ATAMALAR BILAN IFODALANGAN O'LCHOV BIRLIKLARINING INGLIZCHA TARJIMALARDA AKS ETISHI¹

Tursunov Akmaljon Hamidjonovich

Tursunov Muhammadyusuf Alisher o'g'li

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Namangan davlat chet tillari instituti, Tadqiqotchi

Namangan davlat chet tillari instituti

Email: tursunov_ajon@mail.ru

ORCID ID: 0009-0002-7358-1072

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

"O'tkan kunlar" romani milliy til birliklari bilan birga diniy til birliklarini ham o'z ichiga oladi. Ko'plab joylarda diniy atamalar bilan vaqt o'lchov birliklari leksemalari hosil qilingan. Masalan, "fotihadan so'ng", "asr namozining vaqti", "xuftan namozidan so'ng", "Ollohu akbar"ning so'ngi takrorida, "shom bilan asr oralarida", "kun asrdan og'ib shomga yaqin" kabi iboralar musulmon o'quvchi uchun tushunarli bo'lsa-da, boshqa din vakillari uchun izoh talab qilishi mumkin.

Abdulla Qodiriyning asarida islomiy atamalar bilan keluvchi o'lchov birliklari leksemalari ko'p uchraydi. Bu leksemalar musulmon dunyosi kishilari uchun aniq bir vaqtini ifodalashda xizmat qiladi.

"O'tkan kunlar" romanining ingliz tiliga qilingan tarjimalarini qiyosiy o'rganish, tipologik jihatdan tahlil qilish ushbu masala bo'yicha chuqurroq tushuncha berishi mumkin. Tadqiqotimizda roman va uning ingliz tiliga qilingan tarjimalaridan ayrim o'rinlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Leksik birlik, diniy birlik, islomiy atama, o'lchov birligi, tarjima usullari, transkripsiya, transliteratsiya, adekvat tarjima.

Received: August 11, 2024

Accepted: September 15, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**

Tursunov A.H., Tursunov M.A. Islomiy atamalar bilan ifodalangan o'lchov birliklarining inglizcha tarjimalarda aks etishi. // *Komparativistika (Comparative Studies)*. — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

АНГЛИЙСКИЙ ПЕРЕВОДЫ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ, ВЫРАЖЕННЫХ В ИСЛАМСКИХ ТЕРМИНАХ

Турсунов Акмалжон Хамиджонович

Турсунов Мухаммадюсуф Алишер угли

доктор философии по филологии, доцент
Наманганский государственный институт
иностранных языков
e-mail: tursunov_ajon@mail.ru
ORCID ID: 0009-0002-7358-1072

Наманганский государственный институт
иностранных языков,
исследователь

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В романе «Минувшие дни» наряду с национальными языковыми единицами встречаются религиозные термины, часто используемые для обозначения времени суток. Например, такие выражения, как “fotihadan so‘ng” (после первой суры Корана), “asr namozining vaqti” (время послеполуденной молитвы), и “xuftan namozidan so‘ng” (после ночной молитвы) являются понятными для читателя мусульманского мира. Эти лексемы, обозначающие время, также служат религиозными терминами, что делает их восприятие естественным для людей, знакомых с исламской культурой и практиками. В произведении Абдуллы Кадыри такие термины встречаются параллельно с обычными единицами измерения времени. Это понятные и доступные выражения для читателя той эпохи и региона. Однако при переводе на другой язык возникают трудности, требующие пояснений, поскольку эти религиозные термины могут быть незнакомы читателю другой веры. Сравнительный анализ переводов романа на английский язык помогает понять, как решается задача адекватности перевода таких специфичных культурных элементов. В рамках исследования были проанализированы фрагменты романа и их английские переводы, чтобы оценить, насколько они сохраняют исходный смысл.	Лексическая единица, религиозная единица, исламский термин, единица измерения, способы перевода, транскрипция, транслитерация, адекватный перевод. Received: August 11, 2024 Accepted: September 15, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

ENGLISH TRANSLATIONS OF UNITS OF MEASUREMENT EXPRESSED IN ISLAMIC TERMS

Tursunov Akmalzhon Khamidzhonovich

Tursunov Muhammadyusuf Alisher ugli

Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

Namangan State Institute of Foreign Languages, Researcher

Namangan State Institute of Foreign Languages

e-mail: tursunov_ajon@mail.ru

ORCID ID: 0009-0002-7358-1072

ABSTRACT	KEYWORDS
As we know, religious language units are also found in the novel “Bygone days” along with national language units, and in many places lexemes of measurement units are formed with religious terms. In the novel “Bygone days” quoted by the author "after blessing", "time of Asr prayer", "after night prayer", in the last repetition of "Allahu Akbar", "between Asr and Maghrib pray time", day lexemes representing the unit of time are formed from religious words such as, "the day deviates from dawn and is close to dusk ", and of course such time lexemes are understandable for a person of the Muslim world, reader who familiar with the five daily prayers, it is natural. In Abdulla Qadiri’s “Bygone days” there are many examples of measurement units that come with Islamic terms. Of course, it is natural that lexemes of measurement units formed by religious terms serve to express a specific time for the people of the Muslim world. Because the lexeme of the measurement unit representing each time is written in a language that is understandable for the people of the time and place where the work was created, so that it can be understood without any difficulties and explanations because it is taken from the language of the people. However, when the work is translated into another language, it is natural that there are places that require some explanation for the reader of a different nationality and religion. A comparative study and typological analysis of the translations of the novel into English serve light on the above enigmatic issue. For this purpose of our research, we took some passages from the novel “Bygone days” and its translations into English for analysis.	Lexical unit, religious unit, Islamic term, unit of measurement, translation methods, transcription, transliteration, adequate translation. Received: August 11, 2024 Accepted: September 15, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

“O‘tkan kunlar” romanining o‘qigan har-bir kishi mazkur romanda Abdulla Qodiriy naqadar san’atkorlik bilan so‘zlardan mohirona foydalanganini guvohi bo‘ladi. Romanda ko‘plab milliy til birliklari ishlatilgan va shu bilan birga islomiy til birliklari ham uchraydi. Aytish joizki, “O‘tkan kunlar” romanining yozilgan vaqtini e’tiborga oladigan bo‘lsak, albatta o‘sha davr o‘zbek xalqi leksikasida ko‘plab islomiy atamalar o‘rin egallagan edi. Asarda islomiy atamalar bilan tadqiqotimiz ob’ekti bo‘lgan o‘lchov birliklari leksemalari ham hosil qilingan.

“O‘tkan kunlar” romanida muallif tomonidan keltirgan *“fotihadan so‘ng”*, *“asr namozining vaqti”*, *“xuftan namozidan so‘ng”*, *“Ollohu akbar”ning so‘ngi takrorida*, *“shom bilan asr oralarida”*, *“kun asrdan og‘ib shomga yaqin”* kabi islomiy so‘zlardan vaqt o‘lchov birligini ifodalovchi leksemalar hosil qilinganki, albatta, musulmon dunyosi odami, besh vaqt namoz bilan tanish bo‘lgan o‘quvchi, kitobxon uchun bunday vaqt o‘lchovi leksemalari tushunarli bo‘lishi tabiiy holdir. Shu o‘rinda muallif *“Ikki yoshga muhabbatlik umr so‘rab fotiha o‘qilg‘andan so‘ng Otabek ichkariga uzatildi”* (Qodiriy A., 1994, 59.) gapi bilan o‘zbek xalqi urf-odatlaridan biri bo‘lgan nikoh marosimi haqida so‘z yuritadi. Bu yerda *“fotiha o‘qilg‘andan so‘ng”* so‘z birikmasini oladigan bo‘lsak, bu albatta vaqtni bildiruvchi o‘lchov birligini ifodalab kelgan. *“Fotiha”* so‘ziga *“o‘qilg‘andan so‘ng”* so‘z birikmasi qo‘shilib vaqt o‘lchovini bildiruvchi leksema hosil bo‘lgan. Shu o‘rinda *“fotiha”* so‘ziga izoh berib o‘tsak, *“Qur’onning birinchi boshlang‘ich surasi, boshlanishi; qo‘l ochib va uni yuzlariga tortgan holda, o‘zi yoki boshqalar uchun yaxshiliklar, ezgulik, tinchlik, salomatlik tilamoq, duo qilmoq”* (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. F-pdf, 360.) kabi ma’nolar anglatadi. *Oshdan so‘ng usta Olim shunday fotiha o‘qidi: - dushmanlaringizning yo‘q bo‘lganlari chin bo‘lsin, sevganingiz bilan endi ma’sud yashang!.* (Qodiriy A., 1994, 97.) *“Fotiha”* islomiy atama ekanligi ko‘rinib turibdi va asliyatdagi *“fotiha o‘qilg‘andan so‘ng”* aynan islomiy so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan vaqtni ifodalovchi o‘lchov birligi bo‘lib kelgan.

O‘rganilganligi: O‘rta asrlar musulmonlari tomonidan o‘lchov birliklari leksemalaridan faol foydalanishganliklari borasida S.Shodmonova o‘zining

“Boburnoma” matnining inglizcha tarjimalarida o‘lchov birliklari leksemalarining lingvokulturologik va pragmatik tadqiqi” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida ham quyidagi fikrlarni bildirgan:

“O‘rta asrlar musulmon sharqi mamlakatlari tarixi va o‘lchov birliklari borasida ko‘zga ko‘ringan tadqiqotchi olim Valter Hints va Y.A.Davidovich o‘z asarlarida, bir-biridan mustaqil ravishda shunday fakti keltirishgan: Markaziy Osiyo musulmonlari o‘lchov birliklari leksemalari borasidagi qoidalarga, boshqa har qanday hudud musulmonlaridagiga qaraganda qat’iy amal qilgan. Bunda xalqaro savdo munosabatlarini yuritishda ham jiddiy ehtiyotkorlik choralari ko‘rilgan”. (Shodmonova S., 2022, 22.)

ASOSIY QISM

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ko‘plab o‘lchov birliklaridan foydalanilgan. Jumladan, islomiy atamalar bilan keluvchi o‘lchov birliklari leksemalari ham talaygina. Albatta, islomiy atamalar bilan hosil qilingan o‘lchov birliklari leksemalari musulmon dunyosi kishilari uchun aniq bir vaqtni ifodalashda xizmat qilishi tabiiy. Chunki, har bir vaqtni bildiruvchi o‘lchov birligi leksemasi asar yaratilgan zamon va makon kishilari uchun tushunarli tilda yozilganki, xalq tilidan olinganligi uchun hech qanday qiyinchiliklar va izohlarsiz tushunish mumkin. Lekin, asar o‘zga tilga tarjima qilinar ekan, boshqa millat va o‘zga din vakili bo‘lgan kitobxon uchun biroz izoh talab qiladigan o‘rinlar ham bo‘lishi tabiiy holdir. Romanning ingliz tiliga qilingan tarjimalarini qiyosiy o‘rganish, tipologik jihatdan tahlil etish yuqoridagi jumboqli masalaga oydinlik kiritishga xizmat qiladi. Shu maqsadda tadqiqotimiz jarayonida “O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga qilingan tarjimalaridan ayrim o‘rinlarni tahlil uchun oldik.

Quyida asardan olingan parcha tahlilini ko‘rib o‘tamiz:

“Masjid minorasidan ruhoniyyat yog‘dirib munglik azon tovushi eshitildi-da, uyqu quchog‘ida yotqan tabi’at uyg‘onib javob bergan kabi jong‘irab ketdi. “Ollohu akbar”ning so‘ngi takrorida Otabek ziyoratxona ayvonidan tushdi-da shildirab oqib turg‘an ariq yonida taxorat olishka o‘lturdi...”(Qodiriy A., 1994, 222.)

Tahlil uchun olingan matndan ko‘rinib turibdiki, kitobxon avvalo tong sahar ekanligi va musulmonlarning besh farzidan biri namozning ertalabki “bomdod” vaqti ekanligi aks etib turganligi ma’lum. Darhaqiqat namozning ertalabki vaqti “bomdod”, albatta, kun chiqishiga qarab belgilanadi. Azon esa ana shu “bomdod” namozini o‘qish uchun chorlov ovozi ekanligi ham ma’lum. Shu o‘rinda “azon” hamda “bomdod” so‘zlariga izoh bersak. “Azon” – namozga chaqirish, namoz o‘qishga chaqiriq. (Masjiddan shom azoni eshitildi. Sh. Toshmatov. Erk qushi) (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A-pdf, 50) Shu bilan birga “azon” so‘zining yana bir – tong yorishish, g‘ira-shira payti, erta tong kabi ma’nolari mavjud bo‘lib, tahlilga tortilgan matnda bu ma’nosi nazarda tutilmagan.

“Bomdod” – erta bilan kun chiqmasdan o‘qiladigan birinchi namoz, bomdod namozi. Shu bilan bir qatorda “erta tong payti”, “sahar” ma’nolarini anglatadi. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. B-pdf, 311.)

Asliyat matnida keltirilgan “Ollohu akbar”ning so‘ngi takrorida” iborasida muallif namozga chorlovchi “azon”ni yakunlanganligini va “azon” chaqiruvining so‘nggi qatorida “Ollohu akbar” iborasi aytilishini ta’kidlash bilan ma’lum bir vaqtni ko‘rsatuvchi islomiy atamalar bilan hosil bo‘lgan vaqt o‘lchov birligidan foydalangan. Shu o‘rinda o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun “Ollohu akbar” so‘z birikmasiga izoh berib o‘tamiz. “Ollohu akbar” – olloh buyuk, ulug‘; ovqatdan so‘ng yoki yo‘lga ketish oldidan o‘qiladigan duo-fotihaning oxirgi iborasi; namozga chorlovchi “azon” chaqirig‘ining oxirgi iborasi”. (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O-pdf, 115)

Yuqorida tahlilga tortilgan matnni asarning inglizcha tarjimalarida berilishini ko‘rib o‘tsak, Ilhom Tuxtasinov va boshqalar tomonidan tarjima qilingan matnida quyidagicha aks ettirilgan:

“In between their sharp voices there seemed to be a sound of moaning. Suddenly the sound from the minaret of the mosque calling for the morning prayer was heard, and sleeping nature awoke lively as if replying to it. At the last words of the call “Allohu akbar” Otabek came down from the terrace for pilgrims, and sat near the ditch for ablutions”. (Qodiriy, A., 2017, 219.) *“Baland ovozlarda orasida*

munqli tovush eshitildi. Birdan, masjid minorasidan ertalabka namoz uchun munqlik azon tovushi eshitildi va tabiat ham uyg'ondi. "Ollohu akbar"ning so'ngi takrorida Otabek ziyoratxona ayvonidan tushdi va oqib turgan ariq yonida tahorat olishka o'turdi")

I. Tuxtasinov va boshqalar tomonidan o'g'irilgan tarjima matniga e'tibor qaratsak, asliyat matnida keltirilgan "masjid minorasi" ingliz tiliga "the minaret of the mosque" deb tarjima qilingan. Bu yerda o'zbek tilidagi masjid so'zi ingliz tilidagi o'ziga teng bo'lgan ekvivalenti "mosque" orqali ifodalangan bo'lsa, "minora" so'zini "minaret" tarzida o'g'irilgan. Shu o'rinda "minora" so'ziga izoh beradigan bo'lsak – "yorug'lik manbai bo'lgan joy; mayoq; minora, biror binoga qo'shib yoki alohida qurilgan mezana shaklidagi inshoot". (O'zbek tilining izohli lug'ati. M-pdf, 598) Ushbu so'zning izohiga e'tibor bersak, bajaradigan vazifasi va shakliga ko'ra oddiy imorat yoki binodan farqli bo'lganligi uchun ingliz tilidagi "building" so'zi tarjimasiga mos kelmaydi.

Asliyat matnida keltirilgan "...munqlik azon tovushi eshitildi-da..." iborasi ingliz tiliga "...calling for the morning prayer was heard..." (*ertalabki namozga chorlov eshitildi*) tarzida o'g'irilgan. Shu bilan tarjimonlar o'zbek tilidagi matnda keltirilgan "azon" so'zi tomonidan anglashiladigan ma'no va uning vazifasini keltirib o'tganlar. To'g'ri, yuqorida izohini keltirib o'tganimizdek, "azon" musulmon dunyosida namozga chorlov vazifasini anglatuvchi so'z. Tarjimonlar aynan ushbu so'zning izohini ingliz tilida ifoda etgan bo'lsalarda, bizningcha, asliyat matnidagi "azon" so'zini transliteratsiya yo'li bilan tarjima qilgan holda izohini alohida keltirilganda yanada ma'qul tarjima ishi bo'lgan bo'lar edi.

"Ollohu akbar"ning so'ngi takrorida...." iborasi orqali vaqt o'lchov birligi ifodalangan va ushbu ibora ingliz tiliga "At the last words of the call "Alloh-u akbar"..." (*"Olloh akbar" ning so'nggi so'zlarida*) tarzida o'g'irilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, "azon" chaqirig'i nima ekanligini tushunmagan o'quvchi, ayniqsa, asarning ingliz tilidagi matni o'quvchisi "Olloh-u akbar"ning so'nggi takrori nima ekanligini tushunmasligi, va natijada asliyat matnida aniq bir vaqtni bildirgan vaqt o'lchovi birligini ifodalovchi leksema ingliz tilidagi tarjimasida o'z vazifasini

yo‘qotishi mumkin. Ma’lumki, islom olamida besh vaqt namozga chorlovchi “azon” chaqirig‘i yakunlanishida ikki marta “Oллоh-u akbar” aytiladi va shu bilan yakunlanadi. Buni har bir musulmon kishisi tushunishi tabiiy, lekin ingliz o‘quvchisiga ushbu ma’noni etkazish uchun avvalo yuqorida ta’kidlaganimizdek “azon” so‘zi transliteratsiya yo‘li bilan o‘g‘irilishi va izohi keltirilishi ma’qul bo‘lar edi. Natijada, “Oллоh-u akbar”ning so‘nggi takrori” degan ibora tushunarli bo‘lar edi.

Yuqorida tahlilga tortilgan asliyat matnidan olingan parcha ingliz tiliga Kerol Yermakova tomonidan quyidagicha o‘g‘irilgan:

“The night withdrew. The plaintive call to morning prayer rang out from the mosque minaret showering everything around with a life giving wave of spiritual purity stirred, began to awake, echoing the cries. With the last “Allah akbar”, Atabek came down for pilgrims and squatted be the aryk to perform his ablutions”. (Abdulla Q., 2018, 207.) (Tun nihoyasiga yetdi. Masjid minorasidan baland va g‘amgin tarzda ertalabki namozga chorlov ovozi har tomondan eshitila boshladi va chaqiriq ovozidan tabiat uyg‘ondi va go‘zal hayot baxshida eta boshladi. “Oллоhu akbar”ning so‘nggida Otabek ariq yoniga kelib tahorat olishga kirishdi.)

Kerol Yermakova tarjimasida “...azon tovshi eshitildi...” iborasi ingliz tiliga “...call to morning prayer rang out...” (ertalabki namozga chorlov ovozi eshitildi) tarzida o‘g‘irilgan va shu bilan “azon” so‘zi o‘z ma’nosini yo‘qotganday bo‘lgan. Chunki, musulmonlarda namozga chorlov muazzin tomonidan “azon” aytish, chaqirish bilan bajariladi. “Azon” diniy so‘z bo‘lib, ushbu so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan vaqt o‘lchovini ifodalovchi leksema tarjimada o‘z aksini topmagan.

Ushbu matn asarning yana bir tarjimoni Mark Riiz tomonidan quyidagicha tarjima qilingan:

“The night retreated. A sad call to morning prayer spread from the tower of the mosque, covering the surrounding area in a pall, filling the air with the life-giving force of spiritual purity, and the natural world echoed the sentiment. At the final retrain of “Allah Akbar” Otabek descended from the darkness of the veranda’s reception area, sat near the stream running through the cemetery, and performed his tahorat”. (Abdullah Q., 2018, 375.) (Tun chekindi, o‘rnini tongga bo‘shatib berdi.

Masjid minorasidan atrofni to'ldirib, hayot baxsh etgan holda sof tabiiy ovoz – ertalabki namozga chorlov ovozi eshitildi. "Oллоh-u akbar"ning so'nggi takroridan so'ng Otabek qorong'u ayvondan chiqib qabriston oralab jildirab oqib chiquvchi ariq bo'yiga keldi va tahorat oldi.)

Mark Riiz tarjima matniga e'tibor bersak, biroz asliyat matniga hamohanglik mavjudligi ko'rinadi. Lekin, tarjimon Bu yerda "azon" chaqirig'i ohangini ingliz tilidagi "sad" so'zi bilan ifodalaydi. Vaholanki, asliyat matnidagi "mungli ovoz" ingliz tilidagi tarjima matnida "g'amgin" so'ziga almashinadi va ijobiy ma'nodagi "mungli" negadir "sad" so'zi bilan butunlay "g'amgin" holga ko'chib qoladi. Barchamizga ma'lumki, "azon" chaqirilgandagi munglilik kishiga yoqimli tarzda eshitiladi. Ingliz tilidagi "sad" so'zi esa salbiy ma'nodagi g'amginlikni ifodalaydi. Shu o'rinda ingliz tilidagi "soft", "quit" so'zlari bilan ifodalansa ma'no jihatdan asliyatga monand bo'lar edi.

Tarjima ishini kuzatar ekanmiz, Mark Riiz tomonidan qilingan tarjima matnida ham "azon" so'zi tushirib qoldirilgan. Undan anglashilgan ma'no berilgan xolos. Bizningcha ingliz o'quvchisi uchun yanada tushunarli bo'lishi uchun "azon" so'zini transliteratsiya yo'li bilan ifodalansa va izohi berilganda yanada tushunarliroq bo'lar edi. Buning natijasida yuqorida ta'kidlaganimizdek, asliyat matnidagi islomiy atamalar bilan hosil bo'lgan vaqt o'lchovini ifodalovchi "Oллоh-u akbar"ning so'ngi takrorida" leksemasi tarjima matni o'quvchisiga biroz tushunarsiz bo'lib qolgan. Chunki, "azon" chaqirig'i, ya'ni ertalabki namozga chorlovchi chaqiriqni tushunmagan o'quvchi "Oллоhu akbar"ning so'nggi takrori" deganda aniq bir vaqtni tushunmay qolishi tabiiy.

XULOSA

Mark Riiz tarjimasining yana bir yutuqli tomoni shundaki, muallif tomonidan keltirilgan "tahorat" so'zi transliteratsiya yo'li bilan berilib, asar oxirida izoh berib o'tilgan. To'g'ri, tarjima matnlarida izohlar ko'payishi o'quvchini biroz bezdirib yoki zeriktirib qo'yishi mumkin. Lekin, o'quvchi uchun butunlay yot bo'lgan o'zga bir xalqqa taalluqli bo'lgan odatlar, rasm-rusumlar, diniy o'ziga xosliklarni ifodalash

uchun alohida tushuntiruvchi izohlar keltirish, asar tarjimasini asliyatga monand bo'lishiga xizmat qiladi.

Bu borada asliyatga muqobil tarjima yaratishda vaqt o'lchovini bildiruvchi birliklar haqida to'xtalib, taniqli tarjimashunos olim A.V.Fyodorov: "Asliyatdagi bir ma'noli so'zga turli kontekstlarda birday mos keladigan bir ma'noli so'zning to'g'ri kelishi amaliyotda juda kam" (Федоров А., 1983, 134.) deb ta'kidlaydi.

Demak, tarjimonlar matn tarjimalarida har bir voqea va hodisaning bo'lib o'tgan vaqtini tafsilotlarigacha aniq ko'rsatishga harakat qilishgan. Chunki tarjima matnlarini asliyatga muvofiq tarzda, lingvistik va pragmatik muammolarni hal qilgan holda o'g'irish mo'ljali aniqligini ta'minlaydi. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalarini o'g'irishda bu jihat o'ta muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qadiri, Days Gone By. Translated by Carol Ermakova, Nouveau monde. – Paris: 2018, p-207.
2. Abdullah Qodiriy, Bygone days, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, 2018, p-375.
3. Qodiriy, Abdulla. The Days Gone By: Novel. Translators: I.M. To'htasinov, O.M.Mo'minov, A.A. Khamidov. – Toshkent: Mashhur press 2017, p-219.
4. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994 й, – В. 59
5. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – Москва: "Высшая школа", 1983. С. 134.
6. Шодмонова С. "Бобурнома" матнининг инглизча таржималарида ўлчов бирликлари лексемаларининг лингвокултурологик ва прагматик тадқиқи" номли диссертация автореферати. – Самарқанд: 2022.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Э. Бегматов ва бошқалар. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент: М-pdf, б-598

REFERENCES

1. Qadiri, Abdullah. (2018) Days Gone By. Translated by Carol Ermakova, Nouveau

monde. Paris: p-207.

2. Qadiri, Abdullah. (2018) Bygone days, translated by Mark E. Reese, Library of Congress Control Number 2019914747, p-375.
3. Qadiri, Abdullah. (2017) The Days Gone By: Novel. Translators: I.M. Tokhtasinov, O.M. Mominov, A.A. Khamidov. Tashkent: Famous press, p-219.
4. Qadiri A. (1994) Days gone by. - Tashkent: G'. Ghulam Literature and Art Publishing House. B. 59
5. Fedorov A.V. (1983) Osnovy obshchey teorii perevoda (linguistic problems). - Moscow: "Vysshchaya Shkola", S. 134.
6. Shodmonova S. (2022) Dissertation abstract entitled "Linguo-cultural and pragmatic study of lexemes of units of measurement in English translations of the text "Boburnoma". Samarkand.
7. An explanatory dictionary of the Uzbek language. E. Begmatov and others. "National Encyclopedia of Uzbekistan" State Scientific Publishing House. Tashkent. M-pdf, b-598